

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI KECHA VA BUGUN

Qulmurodov Oybek

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute
Qo‘g‘irchoq teatri san’ati kafedrasi o‘qituvchisi*

Sobirjonova Umida Mahmudjon qizi

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada san’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri san’ati, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy integratsiyasi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatri, integratsiya, estetik tarbiya, san’at

Yosh avlodning estetik tarbiyasi masalalari O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlari ijodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Jajji fuqarolarga mustaqillik mafkurasini singdirish, ularni barkamol, vatanparvar yoshlar etib tarbiyalash mamlakatimizda yangi davrning vazifasi bo‘lib qoldi. Milliy o‘zligini chuqur his etuvchi, yangicha dunyoqarashga ega fuqarolarni shakllantirishda, umuman, teatr san’atining o‘rni beqiyos, ahamiyati ulkan. Ayniqsa, insonga nafis tuyg‘ulari go‘daklik chog‘laridan boshlab singdirib borish, jajji bolajonlarimizni ezgulikka, go‘zallikka oshno etishda qo‘g‘irchoq teatrlarining ahamiyati katta.

Qo‘g‘irchoq teatrlari davrimizning ma’naviy vazifalarini bajarishlari uchun, albatta, munosib repertuarga, san’atkorlik mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Teatr san’ati ijodkorlari faoliyatida sho‘rolar davrida ildiz otgan befarqlik, o‘zibo‘larchilik, mas’uliyatsizlik kabi illatlarni bartaraf etib, yangi ma’naviy ehtiyojlarni qondira oluvchi sahna asarlari yaratish, fidoyilik, qizg‘in munosabat, aniq g‘oyaviy-badiiy yondashuv, ijodiy izlanishlarni, o‘zaro muvofiqlashtiruvchi professional mahoratni talab eta boshladi. Ayniqsa, ijroda maxsus asbob-anjomlar bilan faoliyat olib borish qonuniyatlariga asoslangan qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari uchun professionalizm masalasi kattalar teatrlaridan farqlanadi. Shunday ekan, qo‘g‘irchoq teatri aktyori o‘z faoliyatida katta teatrlar aktyori uchun shart bo‘lgan ijro – “aktyor mahorati” tamoyillariga to‘la amal qilish bilan birga, qo‘g‘irchoq teatrlarining muhim ijro uslubi sifatini professional tarzda bilishi kerak.

San’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri, o‘zining boy an’analariga, tarixiga ega bo‘lgan betakror san’at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy an’analarini o‘zida saqlagan holda asrlar davomida ularni boyitib, ularga sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Bu san’at turiga ulkan baho berib, taniqli olim

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov shunday deydi: “Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit‘a xalqlarining falsafasi, tasviriy san‘ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir”¹.

Keling, ushbu teatrning rivojlanish tarixiy jarayonini kuztaylik. Masalan, Hind vodiysi sivilizasiyasida arxeologlar miloddan avvalgi 2500 yildagi ip yordamida manipulyatsiya qilishga qodir bo‘lgan boshi ajratib olinadigan bitta terakota qo‘g‘irchoq‘ini topganlar. Yana bir raqam - bu ikkala holatda ham minimal animasiyaga erishib, tayoqni yuqoriga va pastga manipulyatsiya qilish mumkin bo‘lgan terakota maymunini yaratganlar. Dostonda qo‘g‘irchoqlar tasvirlangan Mahabxarata, Tamil adabiyotidan Sangam davri va miloddan avvalgi asrlarning oxiridan milodiy dastlabki asrlarga qadar bo‘lgan turli xil adabiy asarlar yaratishgan. Shu jumladan, Ashoka farmonlari ham yaratilgan².

Hindistonda xalq teatri tomoshalari qabilalarning turli urf-odatlari, o‘yin va raqslar asosida vujudga kelganligi ma‘lum. Xalq teatrining asosiy shakllari bugungi kungacha yetib kelgan. Aksariyat teatr tomoshalarining asosini qadimiy epik dostonlarlar: Ramayana, Mahabharatadan olib o‘ynaladigan sahnalar tashkil topgan. Uning eng ko‘p tarqalgan syujeti doston qahramonlari – Rama va Krishna hayotidan olingan lavhalardan iborat. Bu davrda soya qo‘g‘irchoq teatri keng tarqalgan davrlardan biri edi.

O‘zbek xalqi “Qo‘g‘irchoq o‘yin” san‘atining barcha turlari bilan qadimdan tanishdir. Bu san‘at asrlar davomida xalq ommasi dunyoqarashi va intilishi, mayli hamda didini ifoda etgan va uning manfaatlarini himoya etgan. Avlodlardan avlodga o‘tib yangi tajriba, yangi an‘analar hisobiga rivojlanib boyib kelgan. Shu zayilda qo‘g‘irchoq teatri rivojlanishining murakkabligi nafaqat uning oliy maqsadlari, bolalarning estetik va g‘oyaviy tarbiyalash bilan izohlanadi, balki u tom ma‘noda qo‘l qo‘g‘irchoqlari xalq teatrlarini an‘anaviy asl san‘atini yangi hayot va jamiyatni yangi vazifalarini bajarishi kerak bo‘lgan sharoitda tiklay olmas edi. Lekin shunga qaramay o‘zbek xalqining sevimli qahramonlari Kachal Polvon va Bichixonlarning so‘ngmas shuhrati ularni yangi turdagi qo‘g‘irchoq teatr san‘atini balki yaratilgan spektakllarning haqiqiy qahramonlariga aylanadi. Qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligini anglagan mutaxassis, u rejissyor bo‘lsin yoki aktyor teatr bezakchisi yoki kompazitor, chiroq ustalari va hokozo speltakl sahna obrazini qahramonlar obrazlarini yaratishni aniq yo‘llarini oladi³.

¹M.Qodirov. Teatr san‘ati o‘tmishdan lavhalar. Toshkent. Fan nashriyoti 1993 yil. 163b.

²<https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry>

³Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan

Tarixga nazar tashlasak, 1939-yil Toshkent shahrida davlat qarori bilan o‘zbek va rus truppalari asosida yagona – respublika qo‘g‘irchoq teatri tashkil etilgan bo‘lib, unda mashhur san‘atkorlar Po‘latjon Doniyorov, Zulayho Ishoqova, Elena Podgurskayalar faol ishtirok etishgan. Teatr faoliyatining boshlanishi ikkinchi jahon urushiga to‘g‘ri keldi. Suronli yillarda teatr jamoasiga fidoyi, o‘z ishining mohir ustasi R.Anan‘ev rahbarlik qilib, o‘sha zamonning ruhi va talabiga mos spektakl va kontsertlarni tomoshabinlarga taqdim etgan va bu ishni a‘lo darajada bajargan.

Urushdan keyin teatr jamoasi jahon mumtoz asarlariga, shu bilan birga, o‘z milliy sahna dramaturgiyasini yaratish yo‘lida tinmay ish olib bordi. Katta yoshdagi tomoshabinlar hamda yosh bolajonlarimiz uchun ko‘plab spektakllar sahnalashtirildi. Jumladan, A.Navoiyning “Farhod va Shirin”, H.Olimjonning “Semurg‘”, “Oygul va Bahtiyor” dostonlari instsenirovka qilindi. N.Habibullaevning “Fotimaning sarguzashtlari”, A.Qobulovning “Rahim va qo‘ng‘iz”, R.Farhodiyning “O‘tkir shoxli buqacha”, “Kim oyni o‘g‘irladi?” kabi sahna asarlari dunyoga keldi.

Chorak asrdavomida bu teatrda Respublikamiz san‘at arboblari I.Yaqubov hamda V.Akudin ijodiy hamkorlikda eng sara asarlarni sahnalashtirib, uning nufuzini oshirishga katta xizmat qildi. Teatr 80 yillik ijodiy faoliyati mobaynida Respublika va xalqaro miqyosdagi turli festivallarda ishtirok etib, Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, Birma, Afg‘oniston, Hindiston, Bolgariya, Fransiya, Germaniya, Misr, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH davlatlarida ijodiy safarlarda bo‘ldi, o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq san‘atini dunyoga tanitdi.

Bugungi kunda Respublikamizda 10ta professional davlat qo‘g‘irchoq teatrlari mavjud hamda bu kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni ma‘naviy jihatdan har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri repertuari asosini xajviy ko‘rinishidagi syujetlar, kundalik hayotda uchrab turadigan nuqson va illatlar ustidan kuluvchi asarlar tashkil etadi. Shuningdek, bu san‘at turiga yuqori tashkilotlardan tortib quyi idoralargacha bee‘tibor emaslar.

Mustaqillikning dastlabkidavrida rejissyorlar, musavvirlar, bastakor va aktyorlar o‘z kuchlarini katta ishtiyoq bilan teatr sahnasida sinab ko‘rdilar. Xususan, rejissyorlardan O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Sh.Yusupov, D.Yuldasheva, E.Oripova, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar M.Egamnazarova, F.Xo‘jaev, K.Jabborovalar, aktyorlar A.Mirzag‘iyosov, Sh.Jabbarov, Yu.Shibkov, musavvirlar S.Seduxin, M.Ro‘zmetova, bastakorlar O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi A.Ikromov, A.Kim, L.Ugay samarali ijod qildilar. Oxirgi yillarda O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrida nafaqat bolalar uchun, shuningdek katta yoshdagi tomoshabinlar uchun

ham asarlar namoyish etilyapti. Rejissyor Sh.Yusupovning “Yurt tumori”, “To‘maris”, D.Yuldashevaning “Yana Andersen”, “Qarsildoq”, “Yulduzli bola”, “Oh, bu Xo‘ja Nasriddin”, “Soya” spektakllari, F.Xo‘jaevning “Cho‘p qo‘g‘irchoq” spektakllari teatrning ijro mundarijasidan o‘rin olgan⁴.

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri soni va salmog‘i jihatidan jamiyat ma’naviyatida o‘z o‘rniga egaligi, yosh avlodning madaniyati hamda estetik saviyasini shakllantirishda katta ahamiyatga molikligi shubhasiz. Bunday ulkan vazifani faqat professional ta‘lim olgan san‘atkorlarga uddalay olishlarini nazarda tutgan holda, qo‘g‘irchoq teatri san‘atida beqiyos o‘ringa ega simli qo‘g‘irchoqlarni badiiy imkoniyatlari va soha aktyorlari mahoratini o‘rganish hamda unga mashqlar, treninglarning hal etuvchi ahamiyatini yoritishdir.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalash, bu san‘at uchun mahoratli mutaxassislarni yetishtirish masalasi hozirgi davrda alohida e‘tiborga egadir.

Bugungi qo‘g‘irchoq tomoshalari esa yanada qiziqarli, yanada jonli shakllarda ijro etilmoqda. Eng muhimi, bunday jonli ijro bolalarni ushbu voqealar ishtirokchisiga aylantiradi. Bolalarning tomoshalarni turli texnik vositalar orqali emas, jonli sahnada kuzatishi, yuz berayotgan voqea-hodisalarga kuchli hissiyot, munosabat uyg‘ota oladi. Shu orqali ijodiy dunyosini boyitadi, shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biz kattalarni esa kichkintoylarning katta dunyosiga hurmat va g‘amxo‘rlik bilan qarashga undayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Qodirov. Teatr san‘ati o‘tmishdan lavhalar. Toshkent. Fan nashriyoti 1993 yil. 163b.
2. <https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry>
3. Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan
4. <https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari>

⁴ <https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari>